

Xonobod shahar axborot-kutubxona markazi

Axborot-bibliografiya xizmati

“Ajdodlarimiz jasorati va matonati-fidoyilik,qahramonlik namunasidir”

ESDALIK



Xonobod 2024

Kirish.

9 may –Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk galabaning 79 yilligi munosabati bilan mo`tabar faxriylarimizni , ko`p millatli butun xalqimizni samimiy muborakbod etib , barchangizga o`zimning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Sh. Mirziyoyev

Ushbu qutlug kunda insoniyat tarixidagi eng dahshatli urushda jasorat ko`rsatib , bashariyatni fashizm balosidan saqlab qolgan qahramon ota-bobolarimiz hamda front ortida mardona mehnat qilib, galabani ta'minlashga munosib hissa qo`shgan mard va olijanob yurtdoshlarimiz xotirasiga yuksak hurmat-ehtirom bajo keltiramiz. O`sha ogir yillarda frontga safarbar etilgan 1 million 950 mingdan ziyod o`zbekistonlik jangchilardan 538 mingdan ko`progi halok bo`lgani , 158 mingdan ortigi bedarak yo`qolgani , 870 mingdan oshigi turli jarohatlar olgani , 60 ming nafardan ziyodi esa nogiron bo`lib qaytgani bu galaba biz uchun naqadar qimmatga tushganini yaqqol ko`rsatib turibdi. Ana shu qirginbarot urush xalqimiz qalbida qoldirgan bitmas jarohatni, oradan shuncha vaqt o`tgan bo`lsa,da hamon unutib bo`lmaydi.

Urush davrida 214 ming askar va ofitserlarimiz jangovar orden va medallar bilan taqdirlangani, ularning 301 nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga, 70 nafari uchala darajadagi “ Slava” (Shuhrat)ordeniga sazovor bo`lgani biz uchun,hech shubhasiz, buyuk galabaning eng yorqin sahifalarini tashkil etadi.

Metin irodali xalqimiz o`sha tahlikali yillarda front ortida sabot va matonat bilan mehnat qildi.Sanoat korhonalarining faoliyati front ehtiyoji uchun yo`naltirildi. Urush alangasi ichida qolgan hududlardan mamlakatimizga 170 dan ortiq zavod va fabrikalar ko`chirib keltirildi va qisqa muddatda ularning faoliyati qayta tiklandi. El-yurtimiz front uchun juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yaroq , dori-darmon , oziq-ovqat va boshqa zarur mahsulotlar etkazib berdi. Ikkinchi jaxon urushida 61 ta davlat, dunyoning tahminan 80 foiz aholisi jalb qilingan. Urushda ishtirok qilgan mamlakatlarning 110 million aholisi unga safarbar etildi. O`zbekiston aholisi 1941-1943 yillarda mudofaa fondiga 475 million rubldan ortiq mablagini , 22 million rubllik qimmatbaho shaxsiy buyumlarini ixtiyoriy ravishda topshirgani galabani yaqinlashtirishga yana bir muhim hissa bo`lib qo`shildi. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan butun O`zbekiston xalqi qatori Andijon farzandlari ham fashist bosqinchilariga qarshi kurashga otlanadilar. Urushning birinchi kunlaridanoq andijonliklardan 9000 kishi frontga jo`nab ketdi.Andijonliklar boshqa qardosh xalqlar bilan yonma-yon turib Moskvadan Berlingacha, Stalingraddan Reyxstaggacha bo`lgan

hududdagi butun xalqlarni fashizm balosidan halos etish uchun mardonavor kurash olib bordilar. Bu ayovsiz janglarda yurtoshlarimizning aksariyati qahramonlarcha halok bo‘ldilar. Ularning fashizmga qarshi kurashda ko‘rsatgan qahramonliklari va jasoratlari evaziga German fashizmi tor-mor etildi, militaristik Yaponiya taslim bo‘ldi.

Urush yillarida Andijon viloyatidan jami bo‘lib 97 ming kishi urushda ishtirok etdi. Ulardan 40 mingdan ortig‘i vataniga qaytmadilar. Ular qardosh Respublikalar – Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Boltiqbo‘yi xalqlarini, bir qator Evropa davlatlarini fashizmdan ozod qilish uchun olib borilgan janglarda qahramonlarcha halok bo‘ldilar va o‘sha o‘lkalarda mangu makon topdilar.

1941-1945 yillardagi urushga Xonobodliklardan 400 dan ortiq erkaklar safarbar etildi. Ular urushning dastlabki kunlaridan to oxiriga qadar ishtirok etib, g‘alabaga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar. Ularning ko‘pchiligi urushdan qaytmadi.

Andijonliklar urush yillarida nafaqat jang maydonlarida, balki front ortida ham qahramonona mehnat qildilar. Bu yillarda viloyatda “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun” degan shior ostida targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshirildi. Oddiy xalq vakillari o‘z jamg‘armalarini, topgan-tutganini ixtiyoriy ravishda front ehtiyojlari uchun topshirdilar. Qishloq xo‘jalik ishlarida asosan, nuroniy ota-onalar, xotin-qizlar va bolalar mehnat qilishib g‘alabaga katta xissa qo‘shdilar.

Urush yillarida sobiq SSSRning dushman tomonidan vaqtincha bosib olingan hududlaridan sanoat korxonalari sharqiy hududlarga ko‘chirib keltirila boshlandi. Xususan, O‘zbekistonga ham 100 dan ortiq sanoat korxonalari ko‘chirilib, ularning ma‘lum bir qismi Andijon viloyati hududlariga joylashtirildi. Xalqimizning metin irodasi va fidokorona mehnatlari tufayli bu korxonalar tez fursat ichida front uchun mahsulot ishlab chiqara boshladi. Jumladan, 1941 yilda Ukrainadan ko‘chirib keltirilgan ko‘n zavodi bazasida Xonobod qishlog‘ida “Tarandubitel” korxonasi ishga tushirildi. Bu zavodda yuzlab xonobodliklar faoliyat ko‘rsata boshladi. Bundan tashqari, urush yillarida O‘zbekistonda an'anaviy bunyodkorlik ishlari ham davom ettirildi.

O‘zbekiston qishloq mehnatkashlari urush yillarida O‘zbekistonda barpo etilayotgan zavod va fabrikalar, yangi ochilayotgan konlar, GES va kanallar qurilishida ham faol ishtirok etishib, mehnatda zo‘r matonat ko‘rsatdilar. 1944 yilda o‘zbek xalqining mehnatdagi eng katta yutuqlaridan biri bu Sirdaryo bo‘yiga qurilgan yirik inshoot – 130 ming kilovatt quvvatga ega bo‘lgan Farhod GESining qurilishi bo‘ldi. Bu GESning qurilishida Andijon viloyati kolxozchi yoshlaridan 5000 dan ortiq kishi ishtirok etdilarki, ularning ichida Xonobodliklar ham bor edi.

Andijon viloyati yoshlari Bekobod metallurgiya zavodining qurilishida ham munosib ishtirok etishdi. Jumladan, 1942 yilning o'zida Bekobod metallurgiya zavodiga viloyat koxozchilaridan 2200 kishi yuborilgan bo'lib, 1943 yilda bu jarayon davom etgan. 1943 yil 10 avgustdagi O'zbekiston rahbariyatining Andijonga yuborgan ko'rsatmasiga binoan, zavod qurilishiga yana 300 kishini yuborish belgilangan. Ushbu ma'lumotda Xo'jaobod, Voroshilov, Jalaquduq rayonlari 60 tadan, Baliqchi va Xoldevonbek rayonlari 40 tadan va Oyim rayonidan 50 nafar kishining Bekobod metallurgiya zavodi qurilishiga 10 kun muddatda safarbar qilinishi lozimligi ko'rsatilgan .

Urushning dastlabki yillarida mamlakatning g'arbiy hududlaridan boshpanasiz qolgan aholi, ota-onasiz qolgan minglab bolalar Andijonga ham ko'chirib keltirildi. Evakuasiya qilingan xalqlarga andijonliklar o'z uylaridan boshpana berishdi, topgan bir burda nonini ular bilan birga baham ko'rishdi. Ayniqsa, ota-onasiz qolgan etim bolalarga alohida g'amxo'rlik qilindi va mehribonlik ko'rsatildi. O'zbek xalqi ularni o'z farzandi kabi qabul qilib, tarbiyalariga oldilar.

Xalqimizning butun ichki imkoniyatlari, uning iqtisodiyoti, moddiy va ma'naviy boyligi, umuminsoniy fazilatlari dushmanni tezroq tor-mor etish maqsadlariga yo'naltirildi. Bunda Andijon viloyatining butun aholisi yoshi, jinsi, millatidan qat'iy nazar bir tan, bir jon bo'lib matonat namunalarini ko'rsatdilar.

Boshlangan urush mamlakat qishloq xo'jaligi oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini ham qiyinlashtirib yubordi. Qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat, sanoatni xomashyo bilan ta'minlashdan tashqari, frontni ham to'la ta'min etishi zarur edi. Bu esa urush davrida asosiy og'irlik qishloq aholisining gardaniga tushardi. Qishloq xo'jaligida ayni ish avjiga chiqqan vaqtda erkaklar yoppasiga armiyaga safarbar etila boshlandi. Natijada qishloq xo'jaligida ishchi kuchi va ishlab chiqarish kamayib ketdi. Qishloq xo'jaligidagi barcha yumushlar keksa qariyalar, xotin-qizlar va bolalarning zimmasiga tushdi. Qishloq xo'jaligini ham urush talabiga javob beradigan holda qaytadan barpo etish eng muhim vazifa bo'lib qoldi.

Urush tufayli viloyatda g'allaga bo'lgan talab sezilarli darajada o'sdi. Urushdan avval Respublikaning g'allaga bo'lgan ehtiyoji qisman ittifoqning Evropa qismidan olib kelingan g'alla bilan qondirilgan bo'lib, urush tufayli g'allani Respublikaning o'zida etishtirish zarur bo'lib qoldi. Bu zarurat Andijon viloyatida ham dolzarb vazifaga aylanadi. Andijon mehnatkashlari 1941 yili qisqa muddatda 9855,7 tonna g'allani davlatga topshirdilar. 1941 va 1942 yillarda g'allani davlatga topshirish rejaları ortig'i bilan bajarildi. Viloyatda chorvachilikka ham alohida e'tibor berildi. 1941 yil oxirida viloyat chorvadorlari davlatga 11507 sentner go'sht topshirib, rejani bajardilar.

Urush davrida qishloq aholisining asosiy vazifalaridan biri etishtirilgan paxta hosilini o‘z vaqtida yig‘ib-terib olish edi. Buning uchun birinchi navbatda kolxozchilar, sovxoz va MTS ishchilari, umuman, barcha qishloq mehnatkashlarining yig‘im-terimda ommaviy ishtirok etishlari darkor edi. Urush yillarida viloyat paxta rejalarining bajarilishida Xonobod qishloq mehnatkashlarining ham xissasi katta bo‘ldi. Bundan tashqari, xonobodliklar sholi, pilla, sabzavot, meva etishtirish bo‘yicha ham munosib hissa qo‘shdilar.

Urush boshlanishi bilan Respublikaning shahar va qishloqlarida mudofaa fondlari, aviasiya va tank kolonnalari tashkil qilish uchun mablag‘lar to‘plana boshlandi. 1941 yil oxirigacha Andijon viloyati bo‘yicha 6300 dona po‘stin, 3000 juft qo‘lqop, 2000 dona telpak, 4000 komplekt issiq ichki kiyim, 16500 juft jun paypoq, 5500 juft piyma va boshqa kerakli buyumlar mudofaa fondiga topshirildi. Andijon xalqi urush harakatlari davom etayotgan sharoitda frontdagi jangchilarga, mamlakatning g‘arbiy hududlaridagi aholiga sovg‘alar, meva-cheva, oziq-ovqat mahsulotlarini ham etkazib turishdi. 1941 yil dekabrda Andijon viloyati mehnatkashlari frontga 1562 dona posilka yuborishgan bo‘lsa, urushning og‘ir damlari bo‘lgan 1942 yilda qamaldagi Leningrad aholisi va jangchilari uchun 4 ta vagonda oziq-ovqat mahsulotlari jo‘natdilar .

Ikkinchi jahon urushi tarixi solnomasida Moskva mudofaasi va Moskva ostonalarida bo‘lgan janglar muhim ahamiyatga egadir. Moskva mudofaasida va dushmani bu joyda tor-mor keltirishda butun mamlakat, barcha xalqlar qatori andijonliklar ham munosib qatnashdilar. Ular Moskva mudofaasi uchun olib borilgan janglarda yuksak harbiy mahorat namunalarini ko‘rsatdilar. Fashistlarni Moskva ostonalaridan uloqtirib tashlashda qahramonlik namunalarini ko‘rsatgan o‘zbekistonlik jangchilardan 1753 kishi “Moskva mudofaasi uchun” medali bilan taqdirlanganlar. Ulardan biri 1924 yil 1 aprelda Xonobod qishlog‘ida tug‘ilgan Madaminjon Xasanovdir. U Moskvani mudofaa qilgan 159-polkda xizmat qilgan. Uning Moskva mudofaasida ko‘rsatgan jangovarligi sharafiga “Moskva mudofaasi muzeyi”ga portreti qo‘yilgan. Moskva mudofaasidan Madamin Xasanov Podolskdagi snayperchilar maktabiga yuborilib, 40 kunlik tayyorgarlikdan keyin 3-Belorussiya frontiga yuboriladi. Bu front tarkibida dushmanga qarshi olib borilgan janglarda faol qatnashadi. Shuningdek, u Polshani ozod qilish uchun olib borilgan janglarda ham ishtirok etadi.

Urushning birinchi kunidan to g‘alabaga qadar jang harakatlarida qatnashib, mislsiz mardlik namunalarini ko‘rsatgan xonobodlik jangchilardan biri Sovet Ittifoq Qahramoni Abdulaziz Yo‘ldoshevdir.

Abdulaziz Yo‘ldoshev 1921 yil 8 noyabrda Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa rayoniga qarashli Xonobod qishlog‘ida tug‘ilgan. U 1939 yilda harbiy xizmatga chaqirilgan,

1941 yildan jang harakatlarida qatnashgan. Abdulaziz Yoʻldoshev jangovar faoliyatini 8-oʻqchi diviziyaning 229-polki tarkibida, oʻqchi rota komandirining siyosiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari lavozimida boshlagan. 1942 yilda Xarkov piyodalar harbiy bilim yurtini tamomlagan.

1941 yil 22 iyunda nemis-fashistlar bostirib kirgan vaqtda Abdulaziz xizmat qilayotgan polk kechasi Novgorod-Volinsk tomonga yurish haqida buyruq oladi. Keng maydondagi bugʻdoyzor yoqalab ketayotgan polk jangchilarini dushman samolyotlari pulemyotdan oʻqqa tutadi. Quyunday yopirilib kelayotgan bosqinchilar odam va texnika jihatidan juda ustun boʻlgani uchun ham, polk ogʻir mudofaa janglari bilan Jitomir viloyatining Korosten shahriga, keyinroq Ovruchga chekinadi. Mana shu janglar vaqtida Abdulaziz Yoʻldoshev vzvod komandirligi vazifasiga tayinlanadi.

Ovruchda boʻlgan 18 kunlik qattiq janglar davrida polkning azamat janggchilari dushmanga katta talofat etkazdilar. Ushbu jangda Abdulaziz chap oyogʻidan yarador boʻladi. Uni gospitalga keltiradilar. Insoniylik qiyofasini yoʻqotib, vaxshiy hayvon tusiga kirgan gitlerchi bosqinchilar gospital alomatini bildiruvchi bayroq boʻlishiga qaramay, yaradorlar ustiga ham samolyotdan bombalar tashlay boshladi. Nihoyat, gospital mamlakatning ichkarisiga – Astraxan shahriga koʻchirildi.

Abdulaziz Yoʻldoshev tez orada davolanib, yana polkiga qaytib, oʻz rotasida komandirlik qila boshladi.

1943 yil yozida sovet qoʻshinlari butun front boʻylab qarshi hujum boshlagan, Kursk jangidagi muvaffaqiyatdan keyin Dnepr daryosini kechib oʻtishga tayyorgarlik koʻrilmogʻda edi. Polk komandiri podpolkovnik Shishkov leytenant Abdulaziz Yoʻldoshevni oʻz blindajiga chaqirib, uchinchi va toʻrtinchi rotaga shahardan bir yarim kilometr naridagi koʻl ustiga qurilgan koʻprikdan aylanib oʻtish toʻgʻrisida buyruq berdi. Rota belgilangan joyga etib kelgach, Yoʻldoshev razvedkachi Pivovarovni koʻl boʻyidagi mudofaada turgan dushman kuchlari va qurollarini aniqlab kelishga yubordi.

Razvedkachining aniq maʼlumoti va yoʻl koʻrsatishi bilan rota yarim kechada dushmanning orqa tomoniga oʻtib oladi. Bundan koʻzlangan maqsad dushman askarlarining orqaga chekinishiga yoʻl qoʻymaslik, uni oʻrab olish edi. Bu shahar katta temir yoʻl uzeli boʻlib, bu erdan uch tomonga qarab poezdlar qatnardi. Bundan tashqari, dushmanning oziq-ovqat zahira ombori ham shu erda edi.

Maxortov rotasi oldingi liniyadan oʻtolmay jang kuchayib, vaziyat ogʻirlashgan paytda Yoʻldoshev rotasi gitlerchilar orqasidan xujumga oʻtib, dushman qoʻshinini taslim boʻlishga majbur etdi. Shahar ichidagi dushman bundan xabardor boʻlib hujumga oʻtadi. Yoʻldoshev va Maxortovning rotalari birlashib shahar ichida koʻcha janglarini

boshlab yuboradilar. To'satdan qilingan xujumdan vahimaga tushgan dushman shahardan chekina boshlaydi. Dushmanning qayta hujumi samara bermaydi. Bu jang to'xtovsiz to'rt soat davom etadi. Uch kundan so'ng shahar butunlay dushmandan tozalanadi.

1943 yil sentyabrda leytenant Yo'ldoshev komandirligidagi rota Desna daryosidan kechib o'tishi kerak edi. Uning qismi o'tadigan hududni dushman juda qattiq o'qqa tutib turgan edi. Dushmanning o'q otish nuqtalarini yakson etgandan so'nggina daryodan o'tish mumkin edi. Yo'ldoshev ikki jangchi bilan birga o'q va snaryadlar yog'ib turganiga qaramay, daryodan kechib o'tdi va dushman orqasiga kirib olib granatalar irg'itdi, ikki fashist pulemyotchisini o'ldirdi. So'ng yashirincha nemis snayperlarining orqasiga o'tdi. Ulardan ikkitasini otib tashladi va birini asir oldi. Nemis asiri bergan ma'lumotlar asosida harakat qilgan polk batalonlari ertasi tunda daryoning o'ng tomoniga o'tib, dushmanga qaqshatqich zarba berdilar.

1943 yilning 29 sentyabr tunida Yo'ldoshev avtomat va patronlarni boshiga bog'lab, tishiga ingichka simni tishlab, daryoning keng va muzdek suvlarini kechib narigi qirg'oqqa etib olganidan keyin simni qattiq silkib, aloqachi Pivovarovga rota bilan daryodan suzib o'tishlari mumkinligi to'g'risida ishora qildi. Jangchilar qayiqqa tushib bo'lganlaridan so'ng Pivovarov simning bir uchini qayiqqa bog'lab qo'ydi. Aloqachining ishorasi bilan Abdulaziz simni bir o'zi o'ziga qarab tortib, qayiqni elkansiz va eshkaksiz berigi qirg'oqqa o'tishini ta'minladi. Uch soat ichida rotaning butun tarkibi dushmanga sezdirilmagan xolda shikastsiz daryodan o'tib olishadi.

Yo'ldoshev to'rt hamrohi bilan dushmanning oldingi marrasiga dushmanga sezdirilmagan xolda o'tishib, ularning 10 nafar soldatini asirga oladi. U dushmanning oldingi okoplarini qo'lga olganidan so'ng plasdarmni egallab, uni mustahkamlashga kirishadi va dushmanning hujumiga qarshi tayyor bo'lib turadi.

Faqatgina erta tongda gitlerchilar o'zlarining oldingi okoplarida Yo'ldoshevning jangchilari borligini bilib qoladi. Shundan so'ng dushman asosiy kuchlari bilan Abdulazizning rotasini batalonidan ajratib, ularni qirib tashlash maqsadida shiddatli hujum boshlashadi. Dushman tomonidan otilgan yuzlarcha zambarak o'qlari erni larzaga keltirib, titkilab tashladi. Fashistlar hujumda tanklariga tayangan holda kechgacha 8 marotaba hujumga o'tadi. Ularning bu urinishlari botir jangchilar tomonidan mardonavor tarzda qaytariladi. Dushmanning to'rt tanki va yuzlarcha askari yo'q qilinadi. Biroq shu bilan birga Yo'ldoshevning rotasi ham siyraklashib borardi. Yarador bo'lgan jangchilar hech qayoqqa ketolmas edilar. Ketadigan yo'l yo'q edi. Ular o'z yaralarini o'zlari bog'lab, yana jangni davom ettirishardi. Ana shu qizg'in jang vaqtida okop yaqiniga kelib portlagan snaryad parchasi Abdulazizning o'ng qo'l kaftini

uzib ketdi. Yoʻldoshev qoʻlini bogʻlab jangni davom ettirib, rotaga komandirlik qilib turdi. Yoʻldoshev jangchilarini qarshi hujumga boshlab olgʻa boraverdi. Oxiri uning oyogʻiga oʻq tegib yiqildi. Xamshiralar uni xushsiz holda jang maydonidan olib chiqdilar. U koʻp qon yoʻqotgan edi. Rotaning jangda tirik qolgan jangchilarining qon berishi va shifokorlarning sa'y-harakatlari bilan u omon qoldi. Jarrohlik operatsiyasi bir necha soat davom etib, shifokorlar uning tanasidan yigirmadan ziyod temir parchalarini olib tashlashadi. Maxsus komissiya uni endi jangga yaroqsiz deb topib, oʻz yurtiga qaytarib yuborishadi.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1943 yil 16 oktyabrdagi farmoni bilan Abdulaziz Yoʻldoshevning daryodan kechib oʻtishdagi, daryoning oʻng sohilidagi plasdarmni egallashda, uni mardonavor himoya qilishda, nemis-fashistlarga qarshi kurashda jasurlik va qahramonlik namunasini koʻrsatganligi uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi.

Quyida 1941-1945 yillardagi urushga Xonobod qishlogʻidan safarbar etilib, turli frontlardagi ogʻir janglarda ishtirok etib qahramonlarcha halok boʻlgan yoki bedarak yoʻqolgan Xonobodliklarning roʻyxati keltirilgan:

1. Abdullaev Malik – 1924 yilda tugʻilgan, kichik serjant. 1944 yil 19 oktyabrda halok boʻlgan. Odessa shahri Kiev rayonidagi 2-qabristonga dafn etilgan.

2. Azimov Rahmatjon – 1916 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1941 yil oktyabrda bedarak yoʻqolgan.

3. Arabboev Mullajon – 1920 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1942 yilda bedarak yoʻqolgan.

4. Asqarov Mamatisaq – 1923 yilda tugʻilgan, 149-oʻqchi diviziya, 744-oʻqchi polk oddiy askari. 1942 yil 12 avgustda halok boʻlgan. Gromozdovo qishlogʻida dafn etilgan.

5. Ahmedov Karim – oddiy askar. 1942 yil 13 yanvarda halok boʻlgan. Smolensk oblasti Sichevka qishlogʻida dafn etilgan.

6. Ahmedov Omonboy – oddiy askar. 1945 yil 3 fevralda halok boʻlgan. Altxamer shimoliy punkti Berexovka daryosi boʻyida dafn etilgan

7. Bekjonov Karimjon – 1923 yilda tugʻilgan, 170-oʻqchi diviziya, 391-oʻqchi polk oddiy askari. 1942 yil 25 sentyabrda bedarak yoʻqolgan.

8. Govorenko Merkurii Rodionovich – 1906 yilda tugʻilgan, 27-armiya 492-polkda kichik serjant. 1944 yil 30 noyabrda halok boʻlgan. Vengriyaning Felsh-Molse qishlogʻida dafn etilgan.
9. Jalilov Tojiboy – 8-gvardiyachi armiya, 50-oʻqchi diviziya, 202-polkda oddiy askar. 1943 yil 26 sentyabrda halok boʻlgan.
10. Jumaboev Sodiq – oddiy askar, 1942 yil 14 yanvarda halok boʻlgan. Litvaning Sevani xutorida dafn etilgan.
11. Jumaboev Sobirjon – 215-oʻqchi polkda oddiy askar. 1943 yil 1 sentyabrda Smolensk oblastida halok boʻlgan.
12. Joʻraev Ovish – oddiy askar, 1943 yil iyulida Oryol oblasti Ulyanov rayoni Dudarelov qishlogʻida halok boʻlgan. Shu qishloqdan 500 metr gʻarbda dafn etilgan.
13. Joʻraev Tursun – oddiy askar. 1943 yil aprelida bedarak yoʻqolgan.
14. Ismoilov Bozorboy – 1919 yilda tugʻilgan, 213-oʻqchi diviziya 793-oʻqchi polkda oddiy askar. 1943 yil 14 iyulda Kursk oblasti Toplinka qishlogʻida halok boʻlgan va shu qishloqqa dafn etilgan.
15. Ismonov Sari – 1914 yilda tugʻilgan, 67-gvardiyachi kavaleriya diviziyasi, 199-gvardiyachi oʻqchi polki oddiy askari. 1944 yil 11 avgustda Litvaning Birjay uezdi Koven guberniyasi Bnule qishlogʻida halok boʻlgan va shu qishloqdagi birodarlik qabristonida dafn etilgan.
16. Ismonov Abdulkarim – 1943 yil 21 dekabrda Vitebsk rayoni Andreevka qishlogʻida halok boʻlgan, shu erda dafn etilgan.
17. Yoʻldoshev Zulfiqor – oddiy askar. 1943 yil 29 noyabrda Nikolaevsk rayonida halok boʻlgan, shu erda dafn etilgan.
18. Kalonov Xoʻjan – oddiy askar. 1943 yil 31 avgustda Smolensk oblasti Elnya rayoni Zubarevka qishlogʻida halok boʻlgan, shu qishloq chekkasida dafn etilgan.
19. Kamolov Solijon – oddiy askar, 1944 yil fevralida bedarak yoʻqolgan.
20. Kamolov Sodiq – 1919 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1943 yil 10 dekabrda halok boʻlgan.
21. Karimov Ahmad – oddiy askar, 1944 yil oktyabrda bedarak yoʻqolgan.
21. Madraximov Oʻrinboy – 1943 yil 10 sentyabrda Xarkov oblasti Bersun qishlogʻida halok boʻlgan, shu qishloqning shimoliy-gʻarbiy chekkasida dafn etilgan.

22. Majidboev Abbos – 1924 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1942 yil 30 oktyabrda halok boʻlgan.

23. Malikboev Abdulla – 1920 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1944 yil 20 iyunda halok boʻlgan.

24. Mamadaliev Botir – oddiy askar, 1944 yil noyabrda bedarak yoʻqolgan.

25. Mamadaliev Murod – oddiy askar, 1942 yil 18 sentyabrda bedarak yoʻqolgan

26. Mamajonov Ortiqali – 1924 yilda tugʻilgan. 135-oʻqchi diviziyada serjant. 1943 yil 21 iyulda Oryol oblasti Moilovo qishlogʻida halok boʻlgan, shu erda dafn etilgan

27. Mamanazarov Togʻay – oddiy askar, 1943 yil 21 iyulda Voronej oblastida halok boʻlgan, shu erdagi birodarlik qabristonida dafn etilgan.

28. Mamatov Abdurasul – 1917 yilda tugʻilgan, serjant. 1944 yil 6 iyulda halok boʻlgan.

29. Mamatov Abdulla – 1907 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1943 yil aprelida bedarak yoʻqolgan.

30. Mamatov Obitoxun – oddiy askar. 1944 yil 8 iyulda Vitebsk oblasti Kovalyov qishlogʻida halok boʻlgan, shu qishloqdan 1,5 km janubda dafn etilgan.

31. Mamayusupov Qoʻchqor – 1914 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1942 yil 10 dekabrda halok boʻlgan.

32. Mastonov Savir – 1917 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1941 yil 18 iyulda halok boʻlgan.

33. Mataev Nosir – 1918 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1941 yil 16 oktyabrda halok boʻlgan. 35. Matarov Mutallib – 1925 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1942 yil 29 oktyabrda halok boʻlgan.

34. Matqurbonov Jalil – 1919 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1942 yil 22 oktyabrda halok boʻlgan.

35. Maqsudov Topvoldi – oddiy askar. 1943 yil 18 noyabrda Gorodok qishlogʻida halok boʻlgan, shu qishloqda dafn etilgan.

36. Melijonov Izzatilla – 1922 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1943 yil 10 oktyabrda bedarak yoʻqolgan.

37. Mirzabekov Azimboy – 1021 yilda tugʻilgan, 188-G harbiy qismda oddiy askar. 1944 yil 13 martda halok boʻlgan.

38. Mirzabekov Azimboy – 1922 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1943 yil 16 oktyabrda halok boʻlgan.

39. Mirzaev Solijon – oddiy askar, 1942 yil 30 sentyabrda halok boʻlgan. Suxovka qishlogʻida dafn etilgan.

40. Muhammedov Nu'monjon – Rostov oblastidagi birodarlik qabristonida dafn etilgan.

41. Niyozov Abdukarim – 21-artilleriya diviziyasi, 66-brigada 1310-artilleriya polkida oddiy askar. 1943 yil 5 sentyabrda Smolensk oblasti Plyushchevo qishlogʻida halok boʻlgan, shu qishloqdan 300 metr janubi-gʻarbda dafn etilgan.

42. Nishonov Shokir – oddiy askar. 1943 yil 17 aprelda Leningrad oblastida halok boʻlgan, Shelkovo qabristonida dafn etilgan.

43. Norboev Islom – oddiy askar. 1943 yil Semenov qishlogʻida halok boʻlgan, shu qishloqda dafn etilgan.

44. Nurmatov Azimjon – 1922 yilda tugʻilgan, 17-oʻqchi diviziya, 421-oʻqchi polkda oddiy askar.

1942 yil 18 fevralda Smolensk oblasti Beliy qishlogʻida halok boʻlgan, shu qishloqda dafn etilgan.

45. Obidov Dolimjon – 149-oʻqchi diviziya, 744-oʻqchi polkda oddiy askar. 1942 yil 12 avgustda Gromozdovo qishlogʻida halok boʻlgan, shu qishloqda dafn etilgan.

46. Parmonov Xoʻja – 1912 yilda tugʻilgan, 309-oʻqchi diviziya, 955-oʻqchi polk oddiy askari. 1943 yil 13 oktyabrda bedarak yoʻqolgan.

47. Petrenko Fyodor Semyonovich – 1942 yil iyunda bedarak yoʻqolgan.

48. Pirmatov Usmonali – 1906 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1944 yil 7 mayda halok boʻlgan.

49. Rasulov Mustafo – 1945 yil 28 fevralda Sharqiy Prussiyaning Gettexen-Derdrof qishlogʻida dafn etilgan.

50. Raximov Husanboy – 1923 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1943 yil sentyabrda bedarak yoʻqolgan.

51. Svetlov Pavel Kuzmich – 1925 yilda tugʻilgan. 1943 yilda bedarak yoʻqolgan.

52. Sodiqov Rayimjon – 1910 yilda tugʻilgan, 97-oʻqchi diviziya, 69-oʻqchi polk oddiy askari. 1943 yil 18 sentyabrda Smolensk oblasti Shevyaki qishlogʻida halok boʻlgan va shu qishloqda dafn etilgan.

53. Sodiqov Abdurahim – 1921 yilda tugʻilgan, radist. 1945 yilda Lvov shahri Shuhrat qoʻrgʻonida dafn etilgan.

54. Sotvoldiev Bakir – 1913 yilda tugʻilgan, 99-alohida oʻqchi brigada oddiy askari. 1943 yil 19 yanvarda bedarak yoʻqolgan.

55. Sulaymonov Sayfulmuluk – oddiy askar. 1944 yil 7 fevralda Rovno oblasti Moldovo qishlogʻida halok boʻlgan, shu qishloqdan 150 metr pastroqda dafn etilgan.

56. Sultonov Mamajon – 1910 yilda tugʻilgan. 310-Novgorod oʻqchi diviziyasi, 1082-oʻqchi polk oddiy askari. 1944 yil 11 martda Leningrad oblast Steshevka qishlogʻida halok boʻlgan, shu erda dafn etilgan.

57. Toshboev Isa – oddiy askar. 1943 yil 1 iyulda Voroshilov oblasti “Domon” sovxozida halok boʻlgan va shu erda dafn etilgan.

58. Umaraliev Haydar – 1917 yilda tugʻilgan, oddiy askar. 1941 yil sentyabrda bedarak yoʻqolgan.

59. Umarov Sodiq – 128-oʻqchi diviziya, 741-oʻqchi polkda oddiy askar. 1944 yil 2 aprelda Leningrad oblast Karamishevo qishlogʻida halok boʻlgan, shu qishloqdagi birodarlik qabristonida dafn etilgan.

60. Usmonov Abdurahim – 15-oʻqchi diviziya oddiy askari. 1943 yil 20 iyulda Kursk oblast Bolshoe Troiskoe qishlogʻida halok boʻlgan, shu erda dafn etilgan.

61. Usmonov Umirzoq – 1923 yilda tugʻilgan, 62-alohida oʻqchi brigada oddiy askari. 1942 yil 12 sentyabrda halok boʻlgan.

62. Xushnazarov Saidnazar – oddiy askar, 1943 yil dekabrda bedarak yoʻqolgan.

63. Cherkasov Pyotr Petrovich – 1901 yilda tugʻilgan, oddiy askar. Chkalov oblast Zvernogolovsk rayonida 1942 yil 1 martda halok boʻlgan.

64. Ergashev Obidjon – 1924 yilda tugʻilgan, 16-gvardiyachi Chernigov kavaleriya diviziyasida oddiy askar. Volin oblast Zagadka qishlogʻida halok boʻlgan va shu erda dafn etilgan.

65. Ergashev Ismoil – 1921 yilda tugʻilgan, 164-oʻqchi diviziya, 531-oʻqchi polkda oddiy askar. 1943 yil 17 martda Smolensk oblast Znamensk rayoni

Osipovka qishlogʻida halok boʻlgan va shu erda dafn etilgan.

66. Erkaboev Abduxoliq – 1945 yil 8 aprelda bedarak yoʻqolgan.

67. Qahramonov Foziljon – jangda bedarak yoʻqolgan.

68. Qahramonov Hamdam – 1915 yilda tugʻilgan, 1943 yilda bedarak yoʻqolgan.


69. Qahramonov Foziljon – jangda bedarak yoʻqolgan.

70. Qahramonov Hamdam – 1915 yilda tugʻilgan, 1943 yilda bedarak yoʻqolgan.

71. Qabulov Shokir – 13-oʻqchi polk oddiy askari. 1944 yil 27 fevralda Nevel shahrida hospitalda vafot etgan. M.Memetov koʻchasidagi qabristonning 23-qabrda dafn etilgan.

72. Qodirov Mamajon – oddiy askar. 1943 yil 8 dekabrda halok boʻlgan.

73. Qodirov Xalil – 1944 yil 20 avgustda Madoni jangida halok boʻlgan, shu erdagi birodarlik qabristonida dafn etilgan.



Madamin Xasanov

(1924 - 2018)

Madaminjon Xasanov 1924 yil 1 aprelda Xonobod qishlogʻida tavallud topdi. Mehnat faoliyati oʻrta maktabda oʻqib yurgan chogʻlaridanoq boshlandi. Avvaliga xotin-qizlarga, keyin esa tayyorlov idorasi ishchilariga savod chiqarish kurslarida dars berdi. Keyinroq esa qishloq kengashiga kotib, “Yosh leninchi” kolxozida xisobchi yordamchisi, bosh hisobchi boʻlib ishladi. 1942-46 yillarda armiya safida xizmat kildi .

Fashistlarni Moskva ostonalaridan uloqtirib tashlashda qahramonlik namunalarini koʻrsatgan Oʻzbekistonlik jangchilardan 1753 kishi “Moskva mudofaasi uchun” medali bilan taqdirlanganlar.

Ulardan biri Madaminjon Xasanovdir. U Moskvani mudofaa qilgan 159-polkda xizmat qilgan. Uning Moskva mudofaasida koʻrsatgan jangovarliklari sharafiga “Moskva mudofaasi muzeyi”ga portreti qoʻyilgan. Moskva mudofaasidan keyin M.

Xasanov Podolskdagi snayperchilar maktabiga yuborilib, 40 kunlik tayyorgarlikdan keyin

3-Belorussiya frontiga yuboriladi. Bu front tarkibida dushmanga qarshi olib borilgan janglarda faol qatnashadi. Shuningdek, u Polshani ozod qilish uchun olib borilgan janglarda ham ishtirok etadi, bu janglarda ikki marotaba og‘ir yaralandi. Janglarda ko‘rsatgan mardliklari uchun “Varshavani ozod qilish uchun” medali bilan ham taqdirlangan.

Madamin Xasanov 1946 yil ona yurti Xonobodga katta leytenant unvoni bilan qaytib keladi. Madamin Xasanov Xonobodagi Tarandubitel zavodida laborant, bosh xisobchi lavozimlarida ishlay boshlaydi. Bir yildan so‘ng tuman matlubot jamiyatlari uyushmasi raisining muovini, rais vazifalarida faoliyat ko‘rsatdi. 1953-1956 yillarda Moskva oliy kooperativ maktabida ta‘lim olib, qishlog‘iga imtiyozli diplom bilan qaytdi. U 1956 yilda tuman ijroiya komiteti raisligiga saylandi. 1959 yilda esa “O‘zbektekstiltorg”ning Andijon viloyat bazasiga direktor, viloyat matlubot jamiyatlari uyushmasiga rahbarlik qildi. 1966 yilda “O‘zbekbirlashuv” boshqaruvining raisi etib saylandi. 1979 yilda esa O‘zbekiston Savdo vaziri vazifasiga tayinlandi.

Madaminjon aka qaerda, qaysi lavozimda ishlamasin, xalqiga fidoyilik namunalarini ko‘rsatdi, qalb qo‘ri, bilimi, qobiliyati, salohiyatini ezgu maqsadlarga – bunyodkorlik jabhasiga to‘la-to‘kis bahshida etdi.

Madaminjon aka 1960-70 yillarda matlubotchi kadrlarning yangi avlodini tarbiyalab voyaga etkazishda, Kooperativ instituti, texnikum, bilim yurtlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta‘lim-tarbiyaning zamon talablariga javob beradigan usullarini joriy etish, bilimgozlarni malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash ishlarida ham jonbozlik ko‘rsatdi.

Dastlabki yiliyoq bu ko‘rsatkichni qariyb o‘n barobar oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Ishni maxsus qurilish tresti tuzishdan boshladi. Bankning imtiyozli kreditlaridan, yangi qurilagn turar joylardan mahalliy kengashlar tomonidan beriladigan besh foizli ajratmalardan keng foydalanishni qat‘iy taomilga aylantirdi. Birgina Toshkentning o‘zida “Navro‘z” restorani, “Eski jo‘va” bozori qurilishi boshlab yuborildi, 16 yildan buyon cho‘zilib kelayotgan “Bolalar dunyosi” savdo markazi uch oy ichida nihoyasiga etkazildi. Barcha viloyatlarda savdo shahobchalari qurilishini olib boradigan maxsus boshqarmalar tashkil etildi, yirik bazalar qurildi. Madaminjon aka qaerda ishlamasin savdo xodimlariga qulay mehnat sharoiti yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qildi.

Madaminjon Xasanov savdo va umumiy ovqatlanish tarmog‘ining rahbari sifatidagina emas, balki bu sohalarni ilmiy asosda tashkil etish tamoyillarini ishlab

chiqqan olim sifatida ham tanildi. Madaminjon aka 1965 yili Moskvada “O‘zbekiston matlubot kooperasiyasida ulgurji savdo va uni takomillashtirish yo‘llari” mavzusida dissertasiya yoqlab, iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgandi. Mustaqillik yillarida Madamin Xasanov Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan xissasi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari bilan 1994 yili “Jasorat” medali, 2004 yili “Mehnat shuhrati” ordeni, 2011 yili “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan. 2005 yili Rossiya Federasiyasi Prezidenti Vladimir Putin shaxsan Madaminjon Xasanovni fuqarolarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda va G‘alabaning 60 yillik yubileyini tayyorlash va o‘tkazishga qo‘shgan katta xissasi uchun “1941-1945 yillardagi Ulug‘ Vatan urushi g‘alabasining 60 yilligi” xotira medali bilan taqdirladi. Madaminjon Xasanov 2018 yili 94 yoshida Toshkent shahrida vafot etdi.



Anvarjon Ahmedov

(1925 - 1989)

Anvarjon Ahmedov o‘zining halol mehnati, odamlarga g‘amho‘rliqi, insonparvarligi, bilimdon tashkilotchiligi bilan el-yurt xurmatini qozongan. 1943-1950 yillarda armiya safida bo‘lib, nemis-fashistlarga qarshi urushda va yapon militaristlariga qarshi olib borilgan janglarda qatnashdi. Anvarjon Ahmedov 1975-1985 yillarda Xonobod qishloq Soveti raisi sifatida faoliyat olib bordi. U qaerda va qaysi vazifada ishlamasin, o‘zining butun bilimi va tajribasini yurt farovonligi yo‘liga bag‘ishladi. Uning samarali mehnatlari davlat va hukumat tomonidan munosib taqdirlangan. U ikki marta Mehnat Qizil Bayroq ordenlari va bir nechta medallar bilan mukofotlangan. Jonkuyar inson, xalq mehriga sazovor bo‘lgan.



Shokirov Ismoiljon

(1924 - 2009)

Shokirov Ismoiljon 1924 yilda Xonobod qishlog'ida tug'ilgan. 1942 yili ko'ngillilar qatorida urushga jo'nab ketgan. G'alabadan keyin Xonobodga qaytib, yangi ishga tushgan "Tarandubitel" zavodida ish boshlagan. Ismoiljon aka Shokirov bu zavodda 1972 yilgacha mehnat qildi va o'z faoliyati davomida yuzlab shogirdlar etishtirdi. 1972 yili Xonobodga shahar maqomi berilganidan keyin shahar obodonlashtirish bo'limida brigadir bo'lib ishlay boshladi va bu vazifada 1998 yilga qadar faoliyat olib bordi. Ismoiljon ota Shokirov 2009 yili 85 yoshida vafot etdi. Xonobodliklar Ismoiljon otani shahar obodonligiga katta xissa qo'shgan inson sifatida hurmat bilan esga oladilar.



1941-1945 yillardagi janglarda halok bo'lganlar xotirasiga bag'ishlab 1987-yil Xonobodning Bog'I baland mavzeyida "Xotira maydoni" barpo etildi. Xotira maydoni markazida II-jahon urushi qurbonlari xotirasi monumenti qad rostlagan. Ushbu monument mualliflari S.Mehmonov, E To'raxonov, va me'mor O.O'rinboev.

VATAN FIDOYILARI XOTIRASI XALQIMIZ QALBIDA MANGU YASHAYDI.



Xonobod shahar Teyit maxilla fuqarolar yig'ini dajoylashgan 1941-1945 yillarda janglarda halok bo'lganlar xotirasiga bag'ishlab o'rnatilgan monument.

Adabiyotlar:

1. Хотира. Андижон вилояти, 3-китоб. Тошкент.: “Ўзбекистон”, 1994.
1. Х Домлажонов, М Абдуллаев. Хонобод ва хонободликлар. Андижон нашриёт матбаа МЧЖ. 2022 . 272 б.
2. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 4- жилд. Т.: “Ўз МЭ нашриёти”, 2002.
3. Шамсутдинов Р, Исҳоқов А. Андижон тарихидан лавхалар. Тошкент.: “ Шарк” ,2013.

Matbuot nashrlari:

1. Но`janiyozova, Z. Umrimizning rostgo`y taroziboni: [9-may-Xotira va qadrlash kuni] / Z. Но`janiyozova // Янги Ўзбекистон.-2024.-9 may.-B.3.
2. Mahmudov, N. Q`ahramon faxriylarimiz jasoratidan rux va kuch olib, yuksak burchimizni sharaf bilan ado etamiz: [Inson aziz-xotira muqaddas] / N. Mahmudov // Янги Ўзбекистон.-2024.-10 may.-B.2.

Internet manbalari:

1. <https://darakchi.uz>
2. <https://www.un/int>
3. <https://tradeunionict.uz>

Axborot bibliografiya bo`limi: G.
R. Turg`unova.

Aminova,